

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

№ 2 (May, 2018)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro, 2018

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

№ 2, 2018

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini boshqaradigan O'AK Rayonining 2016-yil 29-oktabr kuni qaratgan qarari bilan **pedagogika va psixologiya fanlari** bo'yicha dissertatsiya e'lon etilgan (shu jumladan) ilmiy nuzurli jurnal sifatida e'lon etilgan bo'lgan zaruriy ma'lumot berilganini ko'rsatgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 4 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston madaniyat va axborot aqshiqi Buzon viloyat madaniyat va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-ferval № 05-072-sonli qaror bilan e'lon qilingan.

Muassas: Buzon davlat universiteti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buzon shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy
Elektron manzili: ped_mahorat@uzma.uz

TAHRIIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adiyor Baxtiyor Rahimovvich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Navoiy tashkiloti Baxtiyor Nejatovvich – iqtisod fanlari doktori, professor

Mas'ul kuchi: Hamziyev Alijon Ra'ziqulovvich – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

To'lganov Abdulqobil Abdulrahimovich, huquq fanlari doktori, professor
Bagirov Ulug'qoy Sheykhovovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Mirmurodov Mirzi Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Ibragimov Xalboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Cheriyev Abdushukur Cheriyevich, pedagogika fanlari doktori, professor
Yeniseyeva Yulka Kirilovna, pedagogika fanlari doktori, professor (N. P. Ostrovskiy nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)
Qariborov Siddiq Qariborovvich, pedagogika fanlari doktori, professor
Baratov Sherif Ramazonovvich, psixologiya fanlari doktori, professor
Jabbarov Azim Mirziqulovvich, psixologiya fanlari doktori, professor
Sunnetova Ra'na Ilmatovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Kasimov Vladimir Vasilevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)
Mirogin Vladimir Grigoryevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Khabarovsk davlat universiteti, Rossiya)
Bardoshina Olga Aleksandrovna, psixologiya fanlari nomzodi, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti, Rossiya)
Chudakovskiy Vera Pavlovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)
Chuprov Leonid Fedorovich, psixologiya fanlari nomzodi, RAE professor (Abakan, Rossiya)
Kasimov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari nomzodi, RAE professor (Kiyev, Ukraina)
Sidorova Lyudmila Pavlovna, falsafa fanlari nomzodi, dotsent ("Oliy iqtisodiyot maktabi" milliy iqtisodiyot universiteti) (Rossiya)
Tadqiqotchi va Zamonaviy Abduvalimovich, tarix fanlari doktori, professor
Amorov Mustaf Karimovich, huquq fanlari doktori, professor
O'riyeva Davronay Saidonovna, biologiya fanlari doktori, professor
Armedova Shaira Nigmatovna, biologiya fanlari doktori, professor
Durdiev Durdinurad Qalenderovich, falsafa-filosofiya fanlari doktori, professor
Meylov Shohmor Armatovich, falsafa fanlari doktori, professor
To'riyev Mahmud Muziyevich, falsafa fanlari doktori, professor
Mirziyev Sherzod Mirziyevich, falsafa fanlari doktori, professor
Mirmurodov No'sir Mirmurodovich, iqtisod fanlari doktori, professor
Bo'liboyev Muhammadjon To'jirievich, iqtisod fanlari doktori, professor
Bo'liboyev Subayron Bo'liboyevich, biologiya fanlari doktori, professor
Olimov Sherzod Sherzodovich, pedagogika fanlari doktori, professor



Safiya NODJAYEVA
Buxoro davlat universiteti
maktabgacha ta'lim kafedra
katta o'qituvchisi

XALQ OG'ZAKI IJODIDA O'Z-O'ZINI TARBIIYA MASALALARI

Maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodidagi har bir janr bir olam, odob, ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos manbai sifatidagi xos usula fikr bayoni etilgan. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari tarbiyaning insonni jihatlarini aks ettirishidan tashqari, yashilik, er-gubuk va odamlilikni go'zal, ibratli misollarda tasdiqlashi, da'vat etishi, yuqtirishi bilan birga amollik ham kasb etadi.

Tayanch tushunchalar: xalq og'zaki ijodi, odob, axloq, axloqiy tarbiya, tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash, erak, pand-nasihati.

В статье излагается о том, что каждый жанр узбекского народного устного творчества является источником своеобразности воспитания и воспитанности. Образцы узбекского народного устного творчества приобретают доброту, благодетель и подтверждаются поучительными примерами.

Опорные понятия: народное устное творчество, воспитание, нравственность, нравственное поведение, самовоспитание, сказка, красота.

In article is outlined every genre of Uzbek oral folk creativity as a source of peculiarity of upbringing and education. The samples of Uzbek oral folk creativity acquire kindness, good deeds are confirmed by instructive examples.

Supporting concepts: folk oral creativity, upbringing, morality, moral behavior, self-education, fairy tale, moralizing.

Pedagogika tizimi bola tarbiyasi bo'yicha odamlar egallagan, o'ziga xos faoliyat bilan eng qadimgi davrdan boshlangan tarbiyani o'rganadi. Ming yillar davomida odamlar o'z faoliyatlari jarayonida bolalar va o'spiranlarni turli xil mehnatga jalb etish hamda ularda odamlar bilan birgalikda harakat qilish ko'nikmasini qator topirish va rivojlantirish, bolalarda mustaqil harakat qilish, ko'rilgan shaxsiy maqsadni amalga oshirishga intilish tuyg'usini o'stinish zarurligini angladilar. Bu sohada ko'rsatgan faoliyatlari natijasida bolalar aqli tanasi rivojlandi, ular shaxs sifatida o'zlarini uchtun zarur va foydali mehnatni tanlab, ajratib olishni o'rgandilar, ularda o'z-o'zini tarbiyalash shakllana boshladi. Tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash insoniyat siyosatlarining rivojida birdan-bir shart bo'ldi. Bolalar tarbiyasi haqida to'plangan tajriba, bilim avlod-dan-avlodga o'tkazildi, pedagogik tizim yaratildi.

O'tmishda o'yin, qo'shiq, go'zallikni namoyish etish, donishmandlarning pand-nasihatlari, hikmatlari, hikoyatlar, afsonaviy eraklar bolalar tarbiyasida muhim vosita bo'ldi. Bu vositalar bolalarning insonlar hayoti, ruhiy kayfiyati ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari bilan uyg'unligini anglab olishlarga yordam berdi. Qadimgi "Quyul-tirish", "Tez yugurish", "Bekimnachoq", "Chak tashlash", "Ko'z boylash", "O'rta qo'l-ni topish", "Tez aytish", "Chitti gul" kabi o'yin jarayonida bolalarda chaqqonlik, qat'iyatlilik, jasurlik, oqillik, do'stlik-inoqlik xislatlari shakllantirildi.

Jamoa z'volan donishmandlar aytgan "Kuchli bo'lay desang, do'sti ortti", "Dili pokning ishi pok", "O'dobli bola elga manzar", "Vatani borming, baxti bor", "El senga cho'zsa ko'l unga doim sodiq bo'l", "Odaming eng baxti vaqti boshqalarga engulik qilish onlarid" kabi hikmatlar o'g'il va qizlarning Vatanga, xalqqa sadoqatli bo'lishlariga yordam beradi, deb bildi, ulardan samarali foydalandi.

Ota-bobolarimiz o'z hayotiy tajribalarida mehnat go'zalligi xususiyati – inson hissiyatiga, hissiyoti oshirish va xulqiga ta'sir etishdan iboratligini ko'rib, bu haqdagi g'oyalarni bolalar ongiga "Me'nhat – farog'at chirog'i", "Ish – inson g'ayhan", "Odaroni me'nhat bezaydi", "Me'nhat – hurmatning toji", "Yigit hu'mi me'nhatda" kabi maqollar yordamida singdirdilar.

Karimjon ko'cha yonidagi bir bog'da aylanib yurgan edi, chiroyli kapalakka ko'zi tushdi. Kapalak juda go'zal edi. Karimjon uni tutib olmoqchi bo'lib yugurdi. Kapalak guldun-gulga qo'nib qochardi. Axiri, Karimjon do'ppi-uni uning ustiga otib, tutib oldi. Bechora kapalak tutqun bo'lib qoldi. Karimjon go'zal kapalakni barimochi orasiga oldi, ammo u uchib yurgan vaqtda yomon emas, hamma go'zalligini yo'qotgan edi.

U yerdan o'tib ketayotgan bir chol bobo Karimjonning qo'lida kapalakni ko'rib:

– O'g'lim, qo'yib yubor, uchib ketan. Uni yana bir oz qo'lingda ushlab tursang, bechora o'lib qoladi. Hayvonlar va parrandalarga ozor berma, – dedi.

Karimjon: "Xo'p, bobojon!" – deb darrov kapalakni qo'yib yubordi.

Karimjon endi ich-ichidan sevinardi, chunki ham chol boboning so'zini qaytarmagandi, ham kapalakni ozod etgandi. U shu kundan boshlab hayvon va parrandalarga qo'l tekizmaydigan bo'ldi.

1. Tanamizning biror yeriga qattiqroq bir narsa tessa, o'sha yernimiz og'riydi, hayvon va parrandalar ham qattiq narsa tegishi bilan shunday og'riqni tuyadilar.

2. Zararli hayvon, parrandalarga ozor berish yaxshi emas, ularga rahm-shafqat qilaylik.

3. Hayvon va parrandalarning ko'pi odamlarga foyda yetkazadi.

Masalan: it qo'ng'ayib, mushuk uchqonlarni, musicha va chumchuq kabi qushlar **ekinlardagi** zararli jonivorlarni bitiradi. Shuning uchun bunday foydali hayvon va parrandalarga qo'lningizdan kelganicha yaxshilik qilaylik.

Ma'lumki, ertaklarda "didaktika", ibrat vositalari muajassamlashtiriladi. Ularda ifodalangan "uydum", hodisalarni oldindan ko'ra bilishlik xususiyati ibratidir. Asrlar osha sayqallashib, sodda va teran mazmunlari bilan bizgacha yetib kelgan ertaklar eng sevimli, eng jozibali xalq ijodidir. Ertakning badiiy kuchi – ularning xalq otzu-umidlari va turmush haqiqatlari bilan uyg'unlikda, odamlar ruhiyatini o'zida aks ettirishida, kattalarga ham, kichiklarga ham birday yoqimli, qiziqarli bo'lishidadir.

Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ularda yilning to'rt fasli, tabiat hodisalari, kishilarning xatti-harakatlari ham ifodalanadi. Bola ulg'aygan sari uning xotira va tushunchasi ham rivojlanib boradi. Tashqi dunyo uning ko'z oldida tobora kengayib boradi, bolalarda inson obrazlari tobora ravshanroq tushunila boshlaydi. Bolalarda asta-sekin aldoqchi, hiylakor kishilar, yaxshi xislatli, adolatli, vijdonli, shafqatli, rahmdil kishilar haqida fikr tug'iladi. Buni chuqur his qilgan ota-onalar hayotiy voqea, inson obrazi afsonaviy ravishda tasvirlangan "Ur to'qmoq", "Ochil dasturxon", "Uchar gilam", "Qayna xumcha", "Dehqon bilan ayiq", "Zunrad va Qimmat" kabi ertaklar, "Qarg'a bilan mushuk", "Yolg'onchi cho'pon" kabi masalalar bolalarni yaxshi fazilat sohibi qilib tarbiyalashda, ularning shaxs sifatida yetishurida muhim vosita bo'lgan.

"Zunrad va Qimmat" ertagida, asosan, yaxshi axloqlik xislati Zunradning yomon xalqlik xislati Qimmatning xatti-harakatlari masolida ko'rsatilgan.

Zunrad odobli, xushmuomalali, kamtar, mehribanlik bo'lgani uchun ham sehrgar kampir mehriqa, hurmatiga sazovor bo'ladi, u bergan baxtlik bilan otasini ham xursand qildi, ota va bola baxtliyor hayotga erishdilar. Tabiat o'z quchoqida uni ardoqladi.

Qimmat odobsizligi, ishqoqmas - dalgasaligi, o'jar va rahmsizligi, kattalarga nisbatan hurmatsizligi tufayli sehrgar kampir qahriga uchradi.

"Qarg'a bilan mushuk" masalida bayon qilinib-hisha: Bir qarg'a mushuk bilan juda do'st bo'ladi. Ular o'rnondagi bir daraxt tagida har kuni churin-churin subbatlashib o'tiradilar. Bir kuni mana shunday subbatlashib o'tirgan paytida uzoqdan bir qoplonning o'zlan tomoniga qarab kelayotganini ko'rib qoladilar. Qarg'a pir etib uchib barglar orasiga yashirindi, mushuk zo'r-bazo'r daraxtning eng past shoxiga chiqib olib, qarg'aga zorlanib: – Do'stim, halokat osindaman, sening yordamingga muhojman, bir iloj qilib meni bu qo'rqinchilikdan qutqar, – dedi. O'sha daraxtga yaqin yerdan cho'ponlar yurgan edilar. Qarg'a uchib berib cho'ponlarning itilardan birining boshiga qanot bilan urdi. Itlar qarg'ani tumb olish uchun yugurdilar. Qarg'a uchib berib yana bir yerga qo'ndi, itlar yana qarg'ani qurib

ketdilar. Shunday qilib, qarg'a necha-necha itlarni o'sha daraxtning yoniga keltirdi. Qoplon daraxt tagida mushukni yeyishni mo'ljallab turgan edi. Itlar qoplonni ko'ra sohib, birdan unga hujum qilishdi. Qoplon nutnaraqay bo'lib qochdi, itlar uning orqasidan qurib ketdi. Shunday qilib, qarg'a o'z do'sti mushukni halokatsidan qutqazdi.

Damak, har bir o'g'il va qiz yordamiga muhtoj bo'lgan do'stiga yordam berib, uni tashmishdan qutqaradi. Do'stga yordam bergan bola axloqli bola, chin do'st hisoblanadi.

Qurg'u nasihatida insonni sevinch, ardoqlash, qadrlash, e'zozlash, uning baxt-saodati uchun kurashish zarurligi kabilik qurg'u chilton nasihat-duo-olqichlarining asosiy mag'zini tashkil etadi.

Ota bilan va'bar uchbu baxorat.

Farzand uchun ota oltin imorat,
Yomon bo'lsa hamki ota ulug'dir,
Ketgan bo'lsa qil qabirini ziyorat.

Ona ko'rsatadi jahon yuzini
Oltiniga bir har bir aytgan so'zini,
Birisi oy bo'lsa, biridir quyosh,
Tavob ayta bosib ketgan izini.

Osmonga tosh otsang boshingga tashar,
O'limgik qushni ko'r mashaqqat tashlar,
Bir mardning izidan kulib karomim,
Qo'lingdan kelarmi ul qilgan ishlar.

Mehnat bilan topang moling qilar mast
Kishi moli bilsang yuqmas bir nafas,
Boshing eton davlatingni kam dema,
Xizmat qilgan rohat ko'rmad-an qolmas.

Zilziladan chiqar tog'ning nidosi,
Hech kishi bo'lmasin g'iybat fidosi,
Silaganman yobi bo'lmas tulpor ot,
Maqtagandan nomard bo'lmas aslo mard.

Demak, o'zbek xalq og'zaki ijodi va uning asosiy manbalaridan inson ma'naviy ustuvorligi, rymon-e'tiqodining busunligi, vatanparvarlik, do'st-birodarlik, yaxshilik, ergulik, abillik, qadr-qimmat va shaxsni ulug'lovchi sahifalari rang-barangdir. Bu sahifalarning har biri Odobnoma, Ibratnoma deb baholanishga ta'minlanib bora bora.

Hozirgi zamon ta'lim-tarbiyasi ishqolol ma'furasi ana shu merosdan oziqlansa, uning eng yaxshi sahifalarini qoidalarini qabul qilsa, o'z oldiga qo'ygan maqsad-vazifalarini sharaf bilan bajarishi mumkin.

Adabiyotlar

1. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari. – Toshkent, 2008.
2. Safarova N. O'zbek bolalar o'yan folklori. – Toshkent, 2005.